

**HUQUQSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY
METODLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI**

*Farxutdinova Matluba Amanbayevna
Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Yuridik yo'nalishda ta'limni samarali tashkil qilishda o'qitishning noan'anaviy metodlarini qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o'qitishning interfaol metodlari, pedagogik texnologiyalar asoslari, tuzilishi, qo'llashning alohida tartiblari, noananaviy metodlarni qo'llashning afzalliliklari masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'z va iboralar: ta'lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, metod, keys, ta'lim metodi, ta'lim vositalari,o'qitish metodlari.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonunida yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatlari, serig'ayrat, izlanuvchan, talim sohasidagi islohotlarni qo'llab – quvvatlovchi, o'z pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida etirof etilgan.Yoshlarning talim olishi, kasb – hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or – innovatsion shart – sharoitlarni yaratish, talimga yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun davlatimiz barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda.Chunki barkamol avlod baxtli kelajak garovidir.

Davlatimiz rahbari "Bizga miqdor emas, sifat kerak.Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o'rganish zarur.Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida etibor qaratsa, o'sha yutadi.Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'nga qo'yish eng muhim vazifamizdir ", deb alohida takidlar ekanlar, ,u borada pedagoglarga yuklatilayotgan mas'uliyatga urg'u berib o'tdilar.

O'qituvchi jamiyatni harakatlantiruvchi kuch bo'lishi bilan birga yangi ishlab chiqarish texnologiyalarni o'zlashtirgan, ularni xayotga tadbiq qila oladigan , yoshlar ongiga jamiyatning xilma – xil xayotida ilg'or bo'lgan barcha ma'lumotlarni yetkaza oladigan qobiliyatga ega bo'lishi lozim.Bir so'z bilan aytganda, bugungi kun o'qituvchisi o'qitishning eng samarali uslublarini yaxshi o'zlashtirgan, eng muhim ularni o'qitishda izchil qo'llay olishga tayyor bo'lishi lozim.

Barcha sohalarda ta'limga qo'yilayotgan bu talablar, hech shubhasiz yuridik ta'limni ham chetlab o'tmayapti albatta.Yuridik ta'limda ham pedagogning kasbiy tayyorgarligi ta'lim sifati, o'qitish metodikasining takomillashuvi, rivojining muhim omilidir.

Hozirgi kunda biz ta'lim sifatining kafolatlovchi asosi pedagogik texnologiyalardir deb ta'kidlanayotgan bir davrda, fikrimcha, ta'limda ko'zlangan

samarali natijadorlik zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’limga kirituvchi o‘qituvchining boshqaruvchanlik mahoratiga bog‘liq. Shuning uchun, har qanday ta’lim – tarbiya sifati, unda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalarning samarasi ta’lim tizimining asosiy boshqaruvchisi bo‘lgan pedagogning tayyorgarlik darajasiga, kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shunday ekan, hozirgi zamon pedagogi o‘z mahoratini uzlusiz oshira borishi, bugungi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o‘zlashtirishi, ijodiy mehnat qilishga intilishi lozim. Yurtboshimiz takidlaganidek, “ Bir o‘ylab ko‘raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm – fan va ta’limga qaratilgan ulkan etibor tufayli emasmi? Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda”.

Hozirgi kompyuter texnologiyalari asrida ta’limning ananaviy usullari orqali kirib kelayotgan axborot oqimini to‘liq o‘zlashtirish imkonini bo‘lmayapti. Shu sabab ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llashga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois, ta’limni jadallashtirish, taraqqiy ettirish va samaradorligini oshirish uchun an’anaviy ta’limga yordam beradigan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligini davrning o‘zi taqazo qilyapti.

Hech kimga sir emaski, yuridik sohaning taraqqiyoti, albatta, yuridik talim, ya’ni huquqiy fanlarni qanday o‘qish – o‘qitish faoliyatiga ham talluqlidir. Yuridik ta’lim talab darajasida bo‘lmas ekan, mamlakatimizda malakali yuridik kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj to‘laligicha qondirilmaydi.

Hozirgi kunda yuridik ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, chunki produktiv ta’limda zamonaviy texnologiyalar o‘quvchi va talabalarni ular egallayotgan bilimlarni o‘zлari izlab topishga, mavzularni mustaqil o‘rganib, vaziyatlarni tahlil qilishga, xulosalar chiqarish va qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

“Texnologiya” yunoncha so‘z, “techne” – mahorat, san’at va “logos” – ta’limot, fan ma’nosini anglatadi.” Ta’lim texnologiyasi “iborasining ma’nosи – ta’lim jarayonini yuksak mahorat bilan san’at darajasida tashkil etish to‘g‘risida ma’lumot beruvchi fan, ta’limot demakdir. Texnologiya tushunchasi fanga 19 – asrning oxirlarida kirib keldi. Ta’lim tizimida bu tushuncha pedagog tomonidan o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi talabalarga ijodiy ta’sir ko‘rsatish, yoshlarda komillik sifatlarini shakllantirish jarayoni tushuniladi. Pedagogik texnologiyalar tushunchasiga turli ta’riflar berilgan, B.R.Ziyomuhamedov tomonidan berilgan ta’rif bu tushunchaning mazmun – mohiyatini to‘liq ochib beradi:

Interfaol metodlar – O‘zaro fikr almashishga, o‘zaro fikrlarni to‘ldirishga, goh verbal, goho noverbal ta’sir o‘tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol

metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga ko'mak beruvchi nazariy – aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Bugungi kunda fanlarga oid bo'lgan tarmoq bilimlarni talabalarga puxta yetkazish, ta'lim samaradorligini muntazam oshirib borish har bir o'qituvchi pedagogning burchidir. Hozirgi ta'lim – tarbiya jarayonida pedagog dars mazmunidan kelib chiqib, ta'limning interfaol usullarini va innovatsion vositalarni qo'llay bilishi lozim.

Interfaol metodlar “pedagog – talaba” o'zaro ta'sir sxemasini tashkil etadi. Ya'ni bu metodlar o'qituvchi va talabalarning ta'lim jarayonida teng ishtirok etishini nazarda tutadi.

Interfaol metodlarni umumiylar tarzda tasniflash mumkin: munozaraga yo'naltirilgan metodlar; o'yin texnologiyalari; treninglar; reytingli metodlar. Quyida yuridik ta'lim uchun interfaol ta'limning samarali usullaridan ayrimlari haqida mulohaza yuritamiz.

1.Taqdimot usuli – auditoriyada foydalanish uchun eng oson va qulay usuldir. Mavzu bo'yicha slayd tayyorlanadi. Ijobiy va qulay jihat shuki mavzuni o'quvchilarga kam vaqt sarflab yetkazish imkonini beradi. O'quvchilarda esa asosiy ma'lumotlarni ajratib olish, o'z fikr – mulohazalarini slayd asosida aniq bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Taqdimot usuli katta hajmdagi mavzularni o'quvchilarga yetkazish, shu mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarni o'zlashtirishlarida qo'l keladi.

2.Muammoli ma'ruza – reproduktiv o'qitish shaklidan farqli o'laroq, ma'ruza davomida bilimlarni uzatish passiv shaklda amalga oshirilmaydi. Ya'ni, o'qituvchi, faqat savol beradi va muammoni aniqlaydi. Qoida va ta'riflarni talabalarning o'zlari tuzadilar. Bu usul ancha murakkab va talabalardan mantiqiy fikrlash bo'yicha ma'lum tajribaga ega bo'lishni talab qiladi.

3.Debat metodi – bu usulning asosiy maqsadi – muammoning yechimini topishda talaba o'z fikriga boshqalarni ishontirishi. Mazmun – mohiyati esa mustaqil fikrni aniq va mantiqan bayon etish, ishonarli dalillar topish, ularni xulosalashdan iborat. O'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib darsni tashkil qiladi. O'quvchilarning barchasiga navbatma – navbat so'z beradi, ularning muammoli masala yuzasidan fikri va argumentlarini tinglaydi va tahlil qilib boradi. O'quvchilar muammoning yechimiga qaratilgan, barchani o'ylantiradigan argumentlarni keltirishlari lozim. Dars yakunida o'qituvchi javoblarni xulosalaydi va talabalarni baholaydi.

4.Xayoldagi sayr metodi – O'quvchilarda ma'lumotlarni tinglash jarayonida ularga nisbatan bilimlarni qo'llash imkoniyatini berish uchun qo'llaniladi.

Masalan, o'qituvchi kundalik xayotida sodir bo'ladigan voqeani aytib

beradi.O‘quvchilar esa tinglash jarayonida har bir sodir bo‘lgan xatti – harakatda huquqning o‘rni yoki xatti – harakatlarga nisbatan ular qanday qo‘llanishiga e’tibor beradilar,javoblarni o‘zлari uchun qayd etib boradilar.

O‘qituvchi tomonidan voqeа aytib berilganidan so‘ng o‘quvchilardan aytilgan har bir holat bo‘yicha huquqiy baho berishlari so‘raladi. O‘quvchilar og‘zaki javob beradilar.

Tasniflash metodi – ushbu metod tushunchalar yoki ma’lumotlarni tasniflash uchun ishlatiladi.Tahlil etish ko‘nikmasining shakllanishiga yordam beradi.Xonaning turli joylariga tushunchalarni guruhlarga ajratish mumkin bo‘lgan so‘zlar yopishtirib chiqiladi.O‘quvchilarga esa turli tushunchalar yoki ma’lumotlar yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi.

Masalan, inson huquqlari yozilgan kichik qog‘ozlar o‘quvchilarga tarqatiladi.O‘quvchilar ularni o‘qib ushbu huquq insonning qaysi toifadagi huquqiga mansubligini aniqlaydilar.Qog‘ozlarni tegishli joyga olib borib yopishtiradilar yoki joylaydilar.

Tasniflash yakunlangandan so‘ng birma – bir ko‘rib chiqiladi va muhokama qilinadi.

“Qarorlar shajarasi “metodi–ushbu metod murakkab mavzularni o‘zlashtirish, masalalarni tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, ular ichidan eng mosini topishga qaratilgan metoddir.Bu metod avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror yoki xulosalar mohiyatini yana bir bor tahlil etish va tushunishga xizmat qiladi. “ Qarorlar shajarasi “ talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini to‘plash va baholash imkonini beradi.Ta’lim jarayonida bu metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan to‘g‘ri qaror qabul qilish, bildirilayotgan har bir fikrning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini tahlil etish imkonini beradi.

Eng og‘ir nuqta metodi - ushbu metod o‘quvchilarga o‘qituvchiga mavzu yuzasidan nimalarni tushunmayapganini ma’lum qilish va o‘qituvchiga o‘quvchilari nimalarni tushunmayapganini bilish hamda kelasi darsda ular yuzasidan ma’lumot berish uchun imkon beradi.

O‘qituvchi dars so‘ngida o‘quvchilardan mavzu bo‘yicha nimaga tushunmayapganini, yana nimani bilishni istashini so‘raydi. O‘quvchilar javoblarini qog‘ozga anonim tarzda yozib beradilar.

O‘qituvchi qog‘ozlarni yig‘ib oladi va darsdan so‘ng javoblarni o‘qib chiqadi.

O‘qituvchi javoblarga tayangan holda kelasi darslarni va mavzuni tushuntirish bilan bog‘liq metodlarini takomillashtirib borish imkoniga ega bo‘ladi.

Interfaol metodlarni qo‘llashda o‘qituvchi metodni to‘g‘ri tanlay olishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Metodni to‘g‘ri tanlashda yuridik fanning tasnifi, mavzuning ko‘lami, o‘rganiladigan masalaning mazmuni, guruhning o‘zlashtirish va faollik darajasi kabi masalalarga e’tibor qaratish muhimdir. Barcha metodlar ham bir

xilda samara beravermaydi. Shuning uchun o‘qituvchi metodni tanlashdan oldin mavzuni to‘liq o‘zlashtirigan, mavzudagi asosiy va dolzarb jihatlarini o‘rganib chiqqan bo‘lishi, ijobiy va salbiy jihatlarini e’tiborga olgan holda , muayyan auditoriyaga samarali yetkazish metodini tanlashi talab etiladi.

Yuridik ta’limda uzoq yillar faoliyat yuritish natijasida shuni aniqladimki, tarixiy – nazariy yuridik fanlarni o‘qitishda muammoli ma’ruza, debat, B- B – B, zinama – zina, davra suhbat, kichik esse , sinkveyn, klaster, bumerang, akvarium, qarorlar shajarasi metodlari samarali bo‘lsa, maxsus yoki tarmoq yuridik fanlarni o‘qitishda keys – stadilarni tahlil qilish ko‘proq natija beradi.

Keys – stadi metodi – bu ta’limdagi metodik yangilik bo‘libgina qolmay, balki uning ta’lim tizimida keng ishlatilishi zamonaviy ta’lim tizimidagi vaziyatga ham bog‘liq. Aytish mumkinki, ushbu texnologiya asosan yangi bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga emas, o‘qituvchi va tinglovchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantinishga qaratilgan.

Keys – stadi – interaktiv ta’lim metodi sifatida talabalar tomonidan eng afzal ko‘riladigan metodlar qatoriga kiradi. Ushbu metodning ijobiy tomonini talabalarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o‘zlashtirishda hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo‘lish imkoniyatini berishda ko‘rish mumkin. O‘z navbatida vaziyatlarning analizi tinglovchilarning kasbiy shakllantirish jarayoniga kuchli ta’sir o‘tkaza olishi, ularning kasbiy jihatdan “ ulg‘ayishiga “ xizmat qilishi, ta’lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirilishi alohida ahamiyatga ega.

Keys – stadi ta’lim texnologiyasi tarkibidagi keysdagি harakatlar tasvir ko‘rinishida , ya’ni video keys tavsiflangan vaziyat ko‘rinishida ham berilishi mumkin, bunda tinglovchidan ushbu tavsifni anglash, tavsiflangan vaziyatning natijalari, samaradorligi yuzasidan mushohada yuritish talab etiladi. Har ikkala holatda ham amaliy harakatlar modelini ishlab chiqish ta’lim oluvchilarning kasbiy fazilatlarini shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Keys – stadi metodining qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilar muammoli masalarni tahlil qilishda normativ – huquqiy hujjatlarni qo‘llash, huquq normalarini tahlil qilish, sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Interfaol usullardan foydalananadigan o‘qituvchi faol ta’lim funksiyasini o‘quvchilarga o‘tkazib, jarayonning yordamchisi va muvofiqlashtiruvchisi sifatida ishlaydi. Shuningdek, u maxsus topshiriqlar tayyorlash, maslahatlar berish, texnologik bazani ta’minalash, ishlarni baholash va fikr – mulohazalarni bildirish orqali jarayonni tartibga soladi.

Interfaol ta’lim jarayonida o‘quvchilar muloqot qiladilar va mustaqil ravishda muammolarni hal qiladilar, ma’lumot almashdilar, o‘z ishlarining natijalarini va boshqa talabalarning ishlarini baholaydilar.

Ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash har bir jamiyatda katta mas’uliyatni talab qiladigan ziddiyatli jarayondir. Mazkur jarayonda pedagog ta’lim – tarbiya jarayonini boshqaruvchisi sifatida bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyati, ahamiyati, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini tushunib yetadi. Hozirgi zamон pedagogi o‘z mahoratini uzluksiz oshira borishi, bugungi kunning yuksak talablariga mos zamонaviy bilim va tajribalarni o‘zlashtirishi, ijodiy mehnat qilishga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yil 7- fevraldagи PF -4947 –son Farmoni.
2. Saidahmedov N ., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamонaviy loyihasi. T. 1999 y.
3. Gulyamova G ., Boymuhamedova K. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda pedagogik mahorat . TDYUI, 2010 y.
4. Ziyamuhamedova B. Pedagogik texnologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma.T ., 2014 y.
5. Avliyakulov N.X. Zamонaviy o‘qitish texnologiyalari. – T. 2014 y.